



**YOSH OILALARDA AJIRIMLARNING PSIXOLOGIK  
SABABLARI VA ULARNING OLDINI OLISH YO'LLARI.**

**Jabaraliyeva Yulduzxon**

*Yo'nalishi: Psixologiya.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi davrda yosh oilalar o'rtasida ajirimlar sonining ortib borishi va ularga tasir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinadi. Oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar o'rganilib, ularning oldini olish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, ajirim, yosh oilalar, psixologik omillar konfillikit, muloqot, emotsional muloqot.

**Kirish**

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. Sog'lom va barqaror oila jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. So'ngi yillarda yosh oilalar o'rtasida ajirimlar sonining ortib borayotgani ijtimoiy-psixologik muammo sifatida dolzarblik kasb etmoqda. 2025-yilning birinchi choragida O'zbekistonda 11.5ming rasmiy nikoh ajirimi ro'yhatdan o'tkazildi. Ba'zi manbalarga ko'ra 2025-yil davomida yana bu ko'rsatgich 32000 atrofida rasmiy nikoh ajirimi qayt etilgan... Ajirimlar nafaqat er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga, balki farzandlarning ruhiy rivojlanishiga ham sabiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yosh oilalarda ajirimlarning psixologik sabablarini o'rganish va ularni oldini olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**Asosiy qisim**

Yosh oilalarda ajirimlarning psixologik sabablari!

Birinchi sabab- muloqot madaniyatining yetishmasligi. Er-xotin o'rtasida ochiq va samimiy suhbatning yo'qligi o'zaro ishonch sustligi tushunmovchilik va nizolarning kuchayishiga olib keladi. Ko'plab oilaviy muammolar aynan kommunikatsiya natijasida yuzaga keladi.

Ikkinchi sabab- nikohga psixologik tayyorgarlikning pastligi. yoshlar ko'pincha oilaviy hayot mas'uliyatini to'liq anglamasdan turmush quradilar. Ijtimoiy tarmoqlardagi chiroyli hayot, go'zal muammolarsiz turmush va baxtni korgan yoshlar real hayotdagi muammolar ularning kutgan tasavvurlari bilan mos kelmaydi va stress holati yuzaga keladi.

Uchinchi sabab- uchinchi shaxs aralashuvi. Qarindoshlar, opa-singil, aka-uka, ayniqsa ota-onaning ortiqcha aralashuvi yosh oilaning mustaqil qaror qabul qilishiga to'sqinlik qiladi va kelishmovchilik, tushunmovchilik va nizolarni keltirib chiqaradi.

To'rtinchi sabab- emotsional yetuklikning yetarli darajada shakillanmaganligi. Jahildorlik, sabirsizlik, murosaga kela olmaslik oilaviy ziddiyatlarning asosiy psixologik omillaridan biri hisoblanadi.

Beshinchi sabab- iqtisodiy ijtimoiy muammolar. Moliyaviy qiyinchiliklar, yoshlarni ma'lum bir kasb hunarni egallamaganligi, kasbi kori bo'la turib mahalla faollari tomonidan



## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR**



qo'llab quvvatlanmasligi, ishsizlik bilan bog'liq stress oiladagi psixologik muhitning buzilishiga olib keladi.

Ajirimlarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar

Yosh oilalarda ajirimlarning oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Nikohdan oldingi psixologik treninglar tashkil etish

Oilaviy hayot bo'yicha psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish

Er-xotin o'rtasida samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish

Konfliktlarni tinch yo'l bilan hal etish usullarini o'rgatish.

Yosh oilalarni ijtimoiy va psixologik qo'llab quvvatlash tizimini kuchaytirish

Xulosa

Yosh oilalarda ajirimlarning oldini olish psixologik savodxonlikni oshirish bilan chambarchas bog'liq. Oilada o'zaro hurmat, ishonch va samarali muloqot muhitini yaratish barqaror oilaning asosiy omili hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan profilaktika ishlar jamiyat barqarorligi va sog'lom avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ajirimlarni oldini olish uchun nafaqat yoshlar bilan balki oilaning kattalari bilan ham psixologik testlar, treninglar o'tkazilishi faqat yoshlarni emas oila a'zolarining ham ruhiy holati tekshirilib ularga ham tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bitta bolaga 7mahalla ota-ona deganlaridek bita oilaga butun jamiyat masuldir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimova V.M Oila psixalogiyasi. –Toshkent ,2019
2. G'oziyev E.G' Umumiy psixologiya.- Toshkent, 2020.
3. Satir V. Oila terapiyasi asoslari, -Moskva, 2018.
4. Minuxin S. Oilaviy terapiya nazariyasi , 2017
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari,2014.